

POLVON DARVOZA: TARIXI, ME'MORIY XUSUSIYATLARI VA XIVA SHAHAR HAYOTIDAGI O'RNI

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail:nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel:+998 (94) 392 42 62

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva shahridagi Ichon qal'aning muhim kirish inshootlaridan biri bo'lgan Polvon darvozaning tarixiy taraqqiyoti, me'moriy tuzilishi va shahar hayotidagi o'rni o'rganiladi. Maqolada darvozaning mudofaa tizimidagi vazifasi, savdo va ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki hamda vaqt o'tishi davomida yuz bergan me'moriy o'zgarishlar tahlil qilinadi.*

Shuningdek, Polvon darvozaning atrofida shakllangan tarixiy muhit, jumladan, karvonsaroylar, tim, madrasa va saroylar bilan bog'liq tizim ham yoritiladi. Darvozaning xalq orasidagi nomlanishlari, uning tarixiy xotira va madaniy merosdagi o'rni ham alohida qayd etiladi.

Kirish so'zlar: *Xorazm, Ichon qal'a, Posshob, Qul, Jallod, Pahlavon Mahmud, Eltuzarxon, Olloqulixon, Xudaybergan Devonov.*

Аннотация: *В данной статье исследуются историческое развитие, архитектурная структура и роль ворот Полвон (Палван) как одного из важнейших входных сооружений Ичан-калы города Хивы. Анализируются функции ворот в системе обороны города, их участие в торговых и общественных процессах, а также архитектурные изменения, произошедшие на протяжении времени. Кроме того, освещается историческая среда, сформировавшаяся вокруг ворот Полвон, включая связанные с ними караван-сарай, торговые купола (тим), медресе и дворцовые комплексы. Особое внимание уделяется народным названиям ворот, их месту в исторической памяти и культурном наследии региона.*

Ключевые слова: *Хорезм, Ичан-кала, Посшоб, Кул, Джаллод, Пахлаван Махмуд, Элтузархан, Аллакулихан, Худайберган Деванов.*

Abstract: *This article examines the historical development, architectural structure, and urban significance of the Polvon Gate, one of the principal entrance structures of Itchan Kala in the city of Khiva. The study analyzes the gate's function within the city's defensive system, its role in commercial and social activities, and the architectural transformations it has undergone over time. The article also highlights the historical environment that developed around the Polvon Gate, including its connections with caravanserais, trading domes (tim), madrasahs, and palace complexes. Special attention is given to the gate's popular names and its significance in historical memory and cultural heritage.*

Keywords: *Khorezm, Itchan Kala, Posshob, Slave, Executioner, Pahlavan Mahmud, Eltuzarkhan, Allakulikhan, Khudaybergan Divanov.*

Insoniyat tarixida shaharlarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi jamiyatning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Qadimdan shaharlar davlat boshqaruvi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat markazlari vazifasini bajargan. Shaharlarning ravnaq topishi bilan bir qatorda ularning xavfsizligini ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli turli davrlarda shaharlar atrofida mudofaa devorlari bunyod etilgan, darvozalar qurilgan, kuzatuv burjlari va boshqa himoya inshootlari barpo qilingan. Bunday me'moriy inshootlar nafaqat harbiy zarurat natijasida vujudga kelgan, balki o'z davrining me'morchilik, muhandislik va shaharsozlik tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan tarixiy yodgorliklar sifatida ham alohida qimmatga ega hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan boshlab yirik shahar madaniyati shakllangan bo'lib, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, Shahrisabz va Xiva kabi shaharlar mintaqaning siyosiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan. Ushbu shaharlar o'ziga xos me'moriy qiyofasi, rivojlangan hunarmandchiligi va puxta mudofaa tizimi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, shahar darvozalari va mudofaa devorlari tarixiy shaharlarning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali shaharning siyosiy mavqei, iqtisodiy qudrati va me'moriy taraqqiyot darajasini baholash mumkin. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy darvozalarni o'rganish nafaqat me'morchilik tarixini, balki shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi tarkibida Xiva shahri alohida o'rin tutadi[1].

Xiva nafaqat Xorazm vohasining yirik siyosiy va iqtisodiy markazi, balki Markaziy Osiyodagi eng yaxshi saqlanib qolgan tarixiy shaharlardan biri sifatida ham e'tirof etiladi. Shaharning asrlar davomida shakllangan me'moriy qiyofasi, mudofaa devorlari, madrasalari, masjidilari, saroylari va darvozalari bugungi kunda ham o'zining tarixiy qimmatini saqlab qolgan. Xiva me'moriy majmuasining markazi hisoblangan Ichan qal'a o'zining yaxlit tarixiy muhitini saqlab qolgani bilan alohida ahamiyatga ega. Mazkur hududdagi har bir me'moriy obida xalqimizning bunyodkorlik an'analari va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Xiva shahri mudofaa tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri darvozalar hisoblangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, shahar darvozalari nafaqat mudofaa vazifasini bajargan, balki savdo yo'llarini tartibga solish, shahar ichki hayotini boshqarish, boj yig'ish va tashqi aloqalarni nazorat qilish kabi vazifalarni ham amalga oshirgan. Shu sababli darvozalar shahar hayotining muhim

markazlaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xiva darvozalari orasida Polvon darvoza o'zining tarixiy o'rni va me'moriy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Polvon darvoza Xiva shahrining eng mashhur tarixiy darvozalaridan biri bo'lib, asrlar davomida shaharning sharqiy qismidagi asosiy kirish va chiqish yo'li vazifasini bajargan. Mazkur darvoza orqali savdo karvonlari, sayyohlar, elchilar va turli hududlardan kelgan mehmonlar shaharga kirib kelganlar. Shu jihatdan u Xivaning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan. Bundan tashqari, darvoza yaqinida hunarmandlar rastalari, savdo maydonlari va boshqa xo'jalik obyektlari joylashgan bo'lib, bu hudud shaharning serqatnov qismlaridan biri hisoblangan.

Polvon darvozaning tarixiy ahamiyati faqat savdo-sotiq bilan cheklanib qolmaydi. U Xiva mudofaa tizimining muhim bo'g'inlaridan biri sifatida shahar xavfsizligini ta'minlashda katta rol o'ynagan. Darvozaning me'moriy tuzilishi, mustahkam qurilishi va mudofaa imkoniyatlari o'z davrining talablariga mos ravishda shakllantirilgan. Shahar mudofaasi uchun muhim hisoblangan ushbu inshoot dushman hujumlari paytida himoya vazifasini bajargan, tinchlik davrida esa shahar va tashqi hududlar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlagan. Tarixiy manbalarda Polvon darvoza bilan bog'liq turli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu ma'lumotlar darvozaning qurilish tarixi, qayta ta'mirlanish bosqichlari, me'moriy qiyofasi va shahar hayotidagi o'rnini yoritishga xizmat qiladi. Biroq mazkur obida haqida mavjud ma'lumotlar turli manbalarda tarqoq holda uchraydi. Shu sababli Polvon darvozaning tarixiy taraqqiyoti va me'moriy xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kun tarixshunosligi va me'morchilik tadqiqotlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Polvon darvoza Xiva shahridagi Ichon qal'aning sharqiy darvozasi bo'lib, 1806-yilda qurilgan. Xalq orasida ushbu darvoza Poshshob (Jallod) darvoza hamda Qul darvoza nomlari bilan ham ataladi. Bu nomlar darvozaning tarixiy xotira va xalq og'zaki an'analari turlicha talqin qilinganini ko'rsatadi. Polvon darvozaning "Qullar darvozasi" nomi bilan atalishiga sabab sifatida ushbu hududda tarixiy davrlarda qul savdosi bilan bog'liq jarayonlar mavjud bo'lganligi tilga olinadi. 1873-yilda rus qo'shinlari Xiva xonligini egallagan davrda shaharda taxminan 10 mingga yaqin qul bo'lganligi qayd etiladi[2]. Darvozaning "Jallod darvoza" deb atalishi esa xalq og'zaki rivoyatlarida turlicha izohlanadi; ayrim talqinlarga ko'ra, u yerda jazolash yoki qatl jarayonlari bilan bog'liq voqealar yuz bergan degan qarashlar mavjud, biroq bu ma'lumotlar tarixiy manbalarda tasdiqlanmagan. Polvon darvozadan o'tgan joyda "Xiva shahri" yozuvi hamda darvoza qurilgan sana – 1221-hijriy yil (1806-yilga to'g'ri keladi) bitilgan marmar lavhani ko'rish mumkin. Polvon darvozaga yaqin hududda Tosh Hovli saroyi va Olloqulixon madrasasi joylashgan. Shahar markazining janubiy qismida Said Olovuddin maqbarasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi hamda Islomxo'ja majmuasi kabi tarixiy obidalar joylashgan.

Polvon darvoza Xiva shahrining asosiy kirish eshigi sifatida xizmat qilgan va shahar mudofaa tizimida muhim o'rin egallagan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, darvoza bir mirshab boshchiligidagi yetti nafar navkar tomonidan qo'riqlangan. Bu holat darvozaning strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim nuqta ekanligini ko'rsatadi. Qal'a devorining atrofi Amudaryodan suv keladigan kanal bilan o'ralgan bo'lib, bu tabiiy mudofaa tizimi sifatida xizmat qilgan.

Polvon darvozada kechasi ko'tarib qo'yiladigan ko'prikl mavjud bo'lgan. Ushbu ko'prikl orqali kirish-chiqish tartibga solingan hamda xavf tug'ilgan holatlarda shahar himoyasi kuchaytirilgan. Darvoza mirshabi Xiva xoni saroyi joylashgan Ark darvozasini qo'riqlovchi mirshab bilan teng miqdorda maosh olganligi uning davlat tizimidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Darvozaning hozirgi ko'rinishi bir necha bor ta'mirlash va qayta qurish ishlari natijasida shakllangan. Dastlab darvoza qal'a devoridan biroz tashqariga bo'rtib chiqqan holda qurilgan bo'lib, bu holat tashqi hududlarni kuzatish va nazorat qilish imkonini bergan. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon tashabbusi bilan Polvon darvoza pishgan g'ishtdan qayta qurilgan. Qayta qurilish jarayonida darvoza tarkibiga uzun yo'lak – dolon ham barpo etilgan[3]. Ushbu dolon nafaqat harakatlanish yo'lagi bo'lib xizmat qilgan, balki savdo rastalari uchun ham joy sifatida foydalanilgan. Bu esa darvozaning faqat mudofaa inshooti emas, balki iqtisodiy hayot bilan ham chambarchas bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi. Darvozaning yon tomonidagi burjlar shahar devorlari bilan yaxlit holda tutashib ketgan bo'lib, bu mudofaa tizimining mustahkamligini ta'minlagan. Polvon darvoza Xiva shahrining kirish-chiqish, mudofaa va savdo jarayonlarini tartibga soluvchi muhim me'moriy inshootlardan biri hisoblanadi.

XIX asrning birinchi yarmida Xiva shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz bera boshladi. 1832–1833-yillarda tim va karvonsaroylarning qurilishi natijasida Polvon darvozaning bozor sifatidagi ta'siri sezilarli darajada kamaydi. Bu holat darvoza atrofidagi savdo faolligining boshqa maxsus savdo inshootlariga ko'chishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, darvoza o'zining mudofaa va kirish-chiqish vazifasini saqlab qolishda davom etdi.

1835-yilda darvozaning ichki qismida Olloqulixon madrasasining qurilishi amalga oshirildi. Ushbu madrasaning bunyod etilishi natijasida darvozaning g'arbiy qismi qayta tiklandi va me'moriy jihatdan yangilandi. Madrasaning qurilishi Polvon darvoza hududining shaharsozlik tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ichki sahnning uzaytirilishiga olib keldi. Shu davrda darvoza old qismida ikki gumbazli va peshtoqli yangi hammom ham qurildi. Mazkur inshootlar darvoza hududining faqat mudofaa nuqtasi emas, balki ijtimoiy va maishiy hayot markaziga aylanganini anglatadi. Darvoza atrofidagi bunday me'moriy komplekslar Xiva shaharsozlik an'analari rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi.

Olloqulixon madrasasining qurilishi bilan birga Polvon darvoza hududi yanada bezakli va me'moriy jihatdan boy ko'rinish kasb etdi. Koshin plitkalar bilan bezatilgan

nafis bezaklar tufayli darvoza xalq orasida "Gul darvoza" nomi bilan ham atalgan. Bu nom uning estetik ko'inishi va bezak san'atining yuksak darajasini ifodalaydi. Shuningdek, darvoza Xiva shahrining mashhur shoir va mutafakkiri Pahlavon Mahmud (1247-1326-yillarda yashagan) sharafiga ham bog'lanadi[4]. Polvon darvoza Pahlavon Mahmud nomi bilan atalgan. "Pahlavon" yoki qisqartirilgan "Polvon" so'zi "qahramon" deb tarjima qilinadi. U xalq orasida shoir, shahar himoyachisi va axloqiy komillik timsoli sifatida ulug'langan bo'lib, uch yuzdan ortiq ruboiylar muallifi sifatida tanilgan. Pahlavon Mahmud Juma masjidining orqa qismida joylashgan mahobatli maqbarada dafn etilgan bo'lib, uning nomi Xiva tarixida chuqur hurmat bilan tilga olinadi[5].

Arxeologik va me'moriy kuzatuvlarga ko'ra, Polvon darvoza obidasi yaxshi saqlangan holatda yetib kelgan. Darvozaning yuqori portal qismi o'q shaklida yuqoriga ko'tarilib boruvchi ark kompozitsiyasiga ega bo'lib, bu Sharq me'morchiligiga xos estetik yechimlardan biridir. Jabhasi ko'k va to'q ko'k rangdagi koshin mozaikalar bilan bezatilgan bo'lib, bu darvozaga o'ziga xos badiiy ko'rinish bag'ishlaydi. Darvoza kirish qismida o'rnatilgan yozuvlar uning 400 yildan ortiq tarixga ega ekanligini hamda davlat muhofazasidagi me'moriy yodgorlik sifatida e'tirof etilishini eslatib turadi. Kiraverishdagi ikki minora ilgari sirlangan ko'k gumbazlar bilan bezatilgan bo'lib, ular darvozaga yanada ulug'vorlik bag'ishlagan. O'ymakor yog'och eshiklar esa o'z davr hunarmandlarining yuksak mahoratini aks ettirib, murakkab naqshlar orqali bezak san'atining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Polvon darvoza XIX asr davomida nafaqat mudofaa inshooti, balki madaniy, diniy va ijtimoiy markaz sifatida ham shakllanib borgan. Uning me'moriy o'zgarishlari Xiva shahrining shaharsozlik taraqqiyoti va madaniy hayotidagi muhim bosqichlarni aks ettiradi.

Polvon darvoza Xiva shahridagi Ichan qal'aning muhim kirish inshootlaridan biri bo'lib, uning bosh qismi peshtoq-ravoqli shaklda qurilgan. Darvozaning ikki yon tomonida guldasta-minora shaklidagi inshootlar joylashgan. Yuqori qismida hamda guldastalarning qafas qismida ravoqli derazachalar mavjud. Peshtoq va guldastalar qismi g'ishtlarning to'lqinsimon uslubda terilishi hamda moviy rangli sirli koshinlar bilan bezatilgani bilan ajralib turadi.

Darvozaxona uzun yo'lak, ya'ni dolon shaklida qurilgan bo'lib, uning o'lchamlari taxminan 51,76×17,5 metrni tashkil etadi. Dolon usti 6 ta gumbaz bilan qoplangan bo'lib, ularning markaziy qismi katta hajmga ega (diametri 5,2 metr), qolgan kichik gumbazlarning diametri esa 4,5 metrni tashkil etadi. Dolonning ikki tomonida savdo rastalari – do'konlar joylashgan bo'lib, ularning soni janubiy tomonda 8 ta, shimoliy tomonda esa 11 tani tashkil etadi. Bu holat Polvon darvozaning nafaqat mudofaa inshooti, balki savdo-iqtisodiy faoliyat markazi sifatida ham xizmat qilganini ko'rsatadi. Polvon darvoza atrofida turli davrlarda bir necha marta ta'mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilgan. Xususan, 1954–1955 va 1982–1984 yillarda ta'mirlash

ishlari amalga oshirilgan. 1911-yilda darvozaning janubiy qismi butunlay qulab tushgan bo'lib, o'sha yili fotograf Xudoybergan Devonov tomonidan olingan surat hozirda Ichan qal'a muzey fondida saqlanadi[6]. 1930-yilda darvoza qayta ta'mirdan chiqarilgan, keyinchalik 1982 va 1997-yillarda ham rekonstruksiya ishlari olib borilgan.

Hozirgi kunda Polvon darvoza ichki qismida savdo rastalari va kichik do'konlar faoliyat yuritadi. Bu esa tarixiy inshootning zamonaviy shahar hayoti bilan uyg'unlashgan holda foydalanilayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Polvon darvoza o'zining me'moriy tuzilishi, tarixiy vazifalari va uzoq yillik taraqqiyoti bilan Xiva shahrining muhim madaniy merosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Polvon darvoza Xiva shahrining Ichan qal'a tizimidagi eng muhim kirish inshootlaridan biri bo'lib, u nafaqat mudofaa vazifasini bajargan, balki shahar hayotining savdo-iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarida ham muhim o'rin tutgan. Darvozaning murakkab me'moriy tuzilishi, peshtoq-ravoqli shakli, guldasta-minoralari va koshin bezaklari o'z davrining yuksak qurilish an'alarini aks ettiradi. Tarixiy taraqqiyot davomida Polvon darvoza bir necha bor o'zgarishlarga uchragan, turli davrlarda savdo markazi, nazorat nuqtasi va kirish-chiqish eshigi sifatida xizmat qilgan. Uning atrofida shakllangan karvonsaroy, tim, madrasa va saroylar majmuasi Xiva shahrining markaziy qiyofasini yanada boyitgan. Darvoza bilan bog'liq tarixiy voqealar, jumladan, ayrim davrlarda jazolash va nazorat tartiblarining shu hududda amalga oshirilgani, shuningdek, qullar bozori mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar uning murakkab tarixiy o'tmishga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, darvozaning qayta-qayta ta'mirlanishi va bugungi kungacha saqlanib qolishi uning muhim me'moriy yodgorlik sifatidagi qimmatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mahmudov M, Sheripov U Xiva xonligi tarixi – Urganch, UrDu nashriyoti, –2013, 138 b.
2. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khiva>
3. P.SH.Zohidov Me'mor olami –Toshkent, "Qomuslar Bosh"tahriroyati, –1996, 240 b.
4. Жабборов И,Ртбеладзе Э,Мамбетуллаев М Хива минг гумбаз шахри – Хоразм "Шарқ"нашриёти, –1997, 307 б.
5. <https://aboutthepoint.com/uz/story/uz-sqq-palvon-darvoza-xivaning-sharqiy-darvozasi-bolib-shahar-tarixi-aynan-shu-yerda-boshlangan>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Polvon_darvoza